

Air Products ta'minotchining xulq-atvor kodeksi



Air Products energiya, atrof-muhit va rivojlanayotgan bozorlarga xizmat ko'rsatishga qaratilgan, 80 yildan ortiq faoliyat yuritib kelayotgan dunyodagi yetakchi sanoat gazlari kompaniyasidir. Kompaniya o'zining o'sish strategiyasida ikki ustunga ega va barqarorlik uning asosidir. Asosiy biznesimiz bo'lgan sanoat gazlari orqali o'nlab sanoat sohalaridagi mijozlarimizni chiqindilarni kamaytiradigan va samaradorlik hamda mahsuldorlikni oshiradigan muhim mahsulotlar va tajribalar bilan ta'minlaymiz. Shuningdek, ko'k va yashil vodorod megaloyihalarimiz orqali energiyaga o'tishni tezlatish va insoniyatni oldinga siljishiga ko'maklashib, 2027-yilgacha toza vodorodni keng miqyosda yetkazib berish uchun 15 milliard dollardan ko'proq mablag' ajratamiz.

Jamiyatning turli qatlamlariga oid 21 000 dan ortiq tirishqoq, iqtidorli va o'z ishiga sodiq Air Products xodimlari atrof-muhitga foyda keltiradigan, barqarorlikni oshiradigan vamijozlar, jamiyat va dunyo oldida turgan muammolarni hal qila oladigan innovatsion yechimlarni yaratishdek kompaniyaning eng oliy maqsadi tomon intiladi.

Ta'minotchilar jamoamizning ajralmas qismi bo'lib, mijozlarimizga mahsulot va xizmatlarni hamda barqarorlik tashabbuslarimizni taqdim etish imkonini beradi. Air Products qadriyatlarimizga hamnafas ta'minotchilar bilan ishlashni xohlaydi. Bu ta'minotchining xulq-atvor kodeksi ("Ta'minotchi kodeksi") ta'minotchilarimiz uchun biznes yuritish, atrof-muhitni himoya qilish va ijtimoiy mas'uliyatga tegishli minimal talablarni belgilaydi.

Qo'llanishi

Bu ta'minotchi kodeksi Air Products guruhiga kiruvchi har qanday kompaniya bilan ish olib boradigan barcha ta'minotchilarga, jumladan, ularning sho'balari, affillangan korxonalar va ularning ta'minotchilari va pudratchilariga nisbatan qo'llanadi. Bu ta'minotchi kodeksi va shartlarimizda ko'rsatilgan talablarga qo'shimcha tarzda ta'minotchilar quyidagilarni bajarishlari kerak:

- Amaldagi barcha qonunlar va qoidalarga muvofiqlikni ta'minlash uchun tizimlar va nazorat vositalarini amalda joriy qilish
- Bu ta'minotchi kodeksiga muvofiqlikni tasdiqlash yoki ta'minotchilarning o'zlarining shunday kuchga ega ta'minotchi kodeksi yoki siyosatlarini mavjudligini ko'rsatish
- Bu talablarni yoki shunday kuchga ega kodeks yoki siyosatlarni ularning ta'minotchilari va pudratchilariga yuborish
- Bu ta'minotchi kodeksining ehtimoliy buzilishi haqida Air Products'ga Air Products'ning [IntegrityLine](#) orqali xabar berish
- Air Products'ning ma'lumotlar haqidagi so'rovlariga javob berish

Baholash

Air Products so'rovnomalar va/yoki audittlar orqali bu ta'minotchi kodeksiga muvofiqlikni baholash huquqini o'zida saqlab qoladi.



Biznes yuritish

Xulq-atvor kodeksida qayd etilganidek, Halollik Air Productsning asosiy qadriyati hisoblanadi. Ta'minotchilar Halollik va etika bilan harakat qilishlari, aktivlarni himoya qilishlari va o'z buyurtmalari va qaydlarining aniqligini ta'minlashlari kerak.

Halollik va etika

Ta'minotchilardan quyidagilar talab etiladi:

- Amaldagi barcha qonunlar va qoidalarga rioya qilish
- Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq yoki o'xshash vaziyatlardan qochish
- Poraxo'rlik yoki korrupsiyaning har qanday shaklida ishtirok etmaslik, jumladan, har qanday to'lovlar, imtiyozlar yoki nomaqbul yoki noqonuniy deb hisoblanishi mumkin bo'lgan har qanday qimmatli narsani, shu jumladan hukumat mansabdor shaxslaridan/ga olish yoki taklif qilish, va'da berish, bajarish, so'rash yoki qabul qilish yoki qabul qilishga rozilik berishga yo'l qo'ymaslik
- Air Products xodimining xulq-atvoriga yoki Air Products bilan biznes yuritayotgan uchinchi tomonlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan me'yordan ortiq sovg'alar yoki mulozamatdan saqlanish
- Savdoni cheklaydigan yoki raqobatni pasaytiradigan kelishuvlar yoki harakatlarni taqiqlash va raqobat uchun maxfiy sanalgan ma'lumotlarni muhokama qilishdan qochish
- Xalqaro savdoni tartibga soluvchi amaldagi qonunlarga, jumladan import/eksport qonunlariga, savdo sanksiyalari va embargolarga rioya qilish
- Air Products'ga sotiladigan tovarlar va materiallarda taqiqlangan materiallar, shu jumladan, nizoli hududlardan olingan minerallar mavjud emasligiga ishonch hosil qilish

Aktivlarni himoya qilish

Ta'minotchilardan quyidagilar talab etiladi:

- Air Products'ning intellektual mulkini, shu jumladan, maxfiy va mulkiy ma'lumotlarni himoya qilish
- Shaxsiy ma'lumotlarni faqat qonuniy biznes maqsadlarida to'plash, ularni faqat ruxsat berilganlar bilan bo'lishish, ma'lumotlarni amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiq himoya qilish va ma'lumotni faqat kerak bo'lgan muddatgacha saqlash

Ta'minotchilarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- Zarur bo'lganda, o'z kompaniyasini kibertahdiddan, ayniqsa, Air Products'ga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tahdid va xavflardan himoya qilish dasturlarini ko'rib chiqish va amalda joriy qilish

Buyurtmalar va qaydlarning aniqligi

Ta'minotchilardan quyidagilar talab etiladi:

- Barcha biznes qaydlarini to'g'ri tayyorlanishi va saqlanishini ta'minlash
- Barcha moliyaviy o'tkazmalarni aniq va o'z vaqtida qayd qilish



Atrof-muhitni himoya qilish

Air Products atrof-muhitni himoya qilish, amaldagi barcha qonunlar va qoidalarga rioya qilish va o'z faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini doimiy kamaytirish bo'yicha sanoatda yetakchilikka intiladi.

Ta'minotchilardan quyidagilar talab etiladi:

- Amaldagi barcha atrof-muhit qonunlari va qoidalariga rioya qilish
- Tabiiy resurslardan, jumladan energiya va suvdan mas'uliyat bilan foydalanish va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishni ko'rib chiqish
- Energiya va resurslar samaradorligi, issiqxona gazlari emissiyasi, suv iste'moli va chiqindilar ishlab chiqarish kabi omillarni hisobga olgan holda operatsiyalar, mahsulotlar va xizmatlarning ekologik samaradorligini kuzatish va doimiy yaxshilash
- Energiya, karbonat anhidridni kamaytirish va suvni tejash bilan bog'liq Air Products'ning maqsadlari va dasturlarini qo'llab-quvvatlash

Ta'minotchilarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- O'zlarining atrof-muhitni himoya qilish ko'rsatkichlari haqida ommaviy va faol hisobot berish
- Yangi, raqobatbardosh va barqaror takliflarni, xususan energiya samaradorligini oshiradigan va issiqxona gazi emissiyasini kamaytiradigan mahsulotlarni ishlab chiqish



Ijtimoiy mas'uliyat

Bizning maqsadimiz dunyodagi eng xavfsiz, eng xilma-xil va eng daromadli sanoat gazi kompaniyasi bo'lishdir. Biz xodimlarimiz, mijozlarimiz, pudratchilarimiz va jamiyatlarimiz xavfsizligini oshirishga, shuningdek, xodimlarimizning inson huquqlarini va o'zaro biznes munosabatlarimizni himoya qilishga intilamiz. Bizning [Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik](#) va [Inson huquqlari](#) siyosatlarimiz bu majburiyatlarni aks ettiradi.

Salomatlik va xavfsizlik

Ta'minotchilardan quyidagilar talab etiladi:

- Amaldagi barcha salomatlik va xavfsizlik qonunlari va qoidalariga rioya qilish
- Xavfsizlikni birinchi o'ringa qo'yish, jumladan, agar ish xavfli deb topilsa, ishlashni to'xtatish
- Xavfsiz ish muhitini yaratish, xodimlarni himoya qilish va baxtsiz hodisalar va voqealarning oldini olishga qaratilgan salomatlik va xavfsizlik yoki shunga o'xshash siyosat va tizimlarni amalga oshirish
- Obyektlarimizda ishlashda Air Products'ning xavfsizlik tartib-qoidalariga rioya qilish
- Xavfsizlik samaradorligini kuzatish va doimiy yaxshilash
- Inson omili va tabiiy ofatlar ta'sirini kamaytirish uchun biznes uzluksizligi rejalarini ta'minlash

Ta'minotchilarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- Xavfsizlik ko'rsatkichlari haqida ommaviy va faol hisobot berish



Ijtimoiy mas'uliyat (davomi)

Inson va mehnat huquqlari

Ta'minotchilardan quyidagilar talab etiladi:

- Inson huquqlariga oid amaldagi barcha qonunlar va qoidalarga rioya qilish
- Irqi, rangi, dini, milliy kelib chiqishi, yoshi, fuqaroligi, jinsi, oilaviy ahvoli, homiladorligi, jinsiy orientatsiyasi, gender identifikatsiyasi, faxriy maqomi, jismoniy yoki aqliy nogironligi va boshqa biznesga bog'liq bo'lmagan omillar bo'yicha hech qanday yo'l bilan kamsitmaslik
- Har qanday jismoniy va og'zaki ta'qiblargiz hurmatga sazovor ish muhitini ta'minlash
- Qullik, odam savdosi yoki majburiy mehnat yoki bolalar mehnatining har qanday shaklidan foydalanmaslik yoki ularga toqat qilmaslik
- Xodimlarning ixtiyoriy birlashish va jamoaviy muzokaralar erkinligi huquqlarini hurmat qilish
- Barcha qonunlarga muvofiq kompensatsiyani ta'minlash va munosib ish haqi, oqilona ish vaqti va ortiqcha ish uchun to'g'ri kompensatsiyani taklif qilish

Ta'minotchilarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- Yuqoridagi fikrlarni qamrab olgan inson huquqlari siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish
- Faoliyatlari va ta'minot zanjirlaridagi inson huquqlari bo'yicha potensial xavflarni baholash va hal qilish

Jamiyatlar

80 yildan ortiq vaqt davomida Air Products butun dunyo bo'ylab mahalliy jamiyatlar bilan aloqalarni o'rnatib, ularning farovonligiga hissa qo'shib kelmoqda.

Ta'minotchilarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- Ularning faoliyatining aholiga ta'sirini, shu jumladan, xavfsizlik va atrof-muhitga ta'sirini tizimli baholash
- Ular faoliyat yuritadigan hamda xodimlari yashaydigan va ishlaydigan mahalliy jamiyatlarni qo'llab-quvvatlash

Turli ta'minotchilar

Air Products turli mamlakatlardan bo'lgan ta'minotchilar biznes yuritishlari uchun amaliy imkoniyatlarni maksimal darajada taqdim etishga intiladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida ozchilikni tashkil etuvchi kompaniyalarga aloqalarni o'rnatishda va bizga muvaffaqiyatli ta'minotchi bo'lishda yordam berish uchun maslahat va ko'rsatmalar beramiz.

Ta'minotchilarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- **Kichik, kam ta'minlangan va boshqa turli ta'minotchilarni** tanlash orqali iqtisodiy aralashuvni rag'batlantirish

Qo'shimcha ma'lumot uchun biz bilan bog'laning:

Kompaniyaning shtab-kvartirasi
Air Products and Chemicals, Inc.
1940 Air Products Blvd.
Allentown, PA 18106-5500
T 610-481-4911 (AQSH va Kanadadan tashqarida
+1-610-481-6799)
info@airproducts.com yoki airproducts.com saytiga tashrif buyuring



GENERATING A CLEANER FUTURE